

BAKALAVRIAT BOSQICHI TALABALARI UCHUN NOMLI DAVLAT STIPENDIYALARI TALABLARI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasi, Navoiy va Islom Karimov nomli davlat stipendiyalari (keyingi o‘rinlarda — nomli davlat stipendiyalari) O‘zbekiston Respublikasidagi davlat va xorijiy oliy ta’lim muassasalari, shu jumladan, qo‘shma ta’lim dasturlarining **oxirgi ikki kursida** o‘qiyotgan talabalarga tayinlanadi va to‘lanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari tanlovlarida ishtirok etuvchi nomzodlarga quyidagi talablar belgilanadi:

a) nomli davlat stipendiyalari uchun:

a’lo o‘qish va ilmiy (ijodiy) ishlarda ishtirok etish;

yo‘nalishlar bo‘yicha konferensiya (tanlov)larda qatnashish (kamida ikkita e‘lon qilingan ishlar);

O‘zbekiston tarixini bilish;

tillarni — davlat tilini va bitta xorijiy (Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari) tilni bilish, bakalavriatdagi ta’lim yo‘nalishi xorijiy til hisoblangan alohida hollarda qo‘shimcha ravishda yana bitta xorijiy tilni bilish. Bunda, talabgorlar ushbu tillar bo‘yicha o‘z bilimlari darajasini aniqlash uchun o‘qish joyidagi til kafedralarida maxsus suhbatdan o‘tadilar;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasi uchun mazkur bandning “a” kichik bandida belgilangan talablarga qo‘shimcha ravishda o‘qiyotgan bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga mos mavzuda kamida ikkita e‘lon qilingan ishlar (maqola, tezis yoki asarlar)ning mavjudligi, butun o‘qishi davomida faqat a’lo baholarga o‘qiganligi inobatga olinadi. (talabgor amalda 3-bosqich talabasi bo‘lishi kerak, stipendiya 4- bosqich uchun tayinlanadi).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalariga talabgorlar dastlabki ko‘rib chiqish uchun oliy ta’lim muassasasi kengashiga quyidagilarni taqdim qiladilar:

- sinov daftarchasidan ko‘chirma;

- dekanat va kafedraning tavsiyanomasi;

- ilmiy (ijodiy) ish rahbarining tavsiyanomasi;

- ilmiy ishlar ro‘yxati va ularning bosma nusxalari;

- tillar kafedrasi, tarix kafedrasining suhbat natijalari haqidagi ma’lumotnomalari.

Barcha hujjatlar jildga (papkaga) joylangan holda taqdim etiladi. Muqovada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki nomli davlat stipendiyasi nomi, talabgorning familiyasi, ismi va otasining ismi, fakulteti, bakalavriat ta’lim yo‘nalishi, kursi, guruhi ko‘rsatiladi.

MAGISTRATURA BOSQICHI TALABALARI UCHUN NOMLI DAVLAT STIPENDIYALARI TALABLARI

Magistratura bosqichi talabalari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalarini tayinlash uchun quyidagi mezonlarni bajarish belgilanadi:

umumta'lim tayyorgarligini ilmiy-tadqiqot (ijodiy ishlar) ishlari bilan uyg'unlashtirish;

yo'nalishlar bo'yicha konferensiya (tanlov)larda qatnashish;

kamida ikkita e'lon qilingan ishlar (asarlar)ning mavjudligi;

tillarni — davlat tilini va bitta xorijiy chet tilni bilish (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari), magistraturadagi mutaxassislik xorijiy til bo'lgan taqdirda esa qo'shimcha ravishda yana bitta xorijiy tilni bilish talab qilinadi;

O'zbekiston tarixini bilish.

Tillarni, axborot texnologiyalarini, O'zbekiston tarixini bilish bo'yicha talab darajalarini O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyasiga nomzodlar ko'rsatish, talabgorlar nomzodlarining o'qishdagi va ilmiy (ijodiy) faoliyatdagi muvaffaqiyatlari ommaviy ravishda muhokama qilingandan so'ng, davlat oliy ta'lim muassasalarining ilmiy kengashlari tomonidan amalga oshiriladi.

Talabgorlar dastlabki ko'rib chiqish uchun ilmiy kengashga quyidagilarni topshiradilar:

- *sinov daftarchasidan ko'chirma;*
- *dekanat, kafedra tavsiyanomasi;*
- *ilmiy (ijodiy) ish annotatsiyasi;*
- *rahbarning fikr-mulohazalari;*
- *ilmiy (ijodiy) ishga taqriz;*
- *ilmiy ishlar ro'yxati va ularning bosma nusxalari.*

Barcha hujjatlar **ikki nusxada** taqdim qilinadi. Hujjatlarning har bir to'plami jildga joylanadi, har bir jild muqovasida ishni taqdim qilgan muassasaning nomi, talabgorning familiyasi, ismi va otasining ismi, ishning nomi ko'rsatiladi.